

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA UNING QONUNYI JIHATDAN TARTIBGA SOLINISHI MASALASI: XALQARO TAJRIBA, MUAMMO VA YECHIMLAR

Abduqodirov Rahmiddin Hazratqul og‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi

abduqodirovrahmiddinstudent@gmail.com

ANNOTATSIYA

Oziq-ovqat inson hayotini yashashi va rivojlanishi uchun eng zaruriy ehtiyoj, lekin ba’zi hollarda bu ehtiyojdagi e’tiborsizlik va loqaydlik tufayli inson hayotdan ko‘z yumishi hech gap emas. Bu loqaydlikni bartaraf etish eng avvalo insonning , keyinchalik davlatning vazifasidir. Shu boisdan hozirda uni davlat siyosati darajasigacha ko‘targan davlatlar hamisha mavjud. Lekin shu bilan birga davlatlarning o‘z vazifasini bajarmayotgani sababli global darajada butun dunyoda 600 ming kishidan ortiq kishi mana shunday e’tiborsizlik tufayli vafot etadi , eng achinarlisi ushu sonning deyarli 30 foizini bolalar tashkil etadi. Bunday achinarli holatga sabab bo‘layotgan muammolarni va yechim bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan vositalarni xalqaro tajribaga asoslangan holda batafsil maqolamizda ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, GFSI, indeks, sanitariya-epidemiologiya, inson salomatligi, global hamkorlik, iste`molchilar xavfsizligi, oziq-ovqat mahsuloti sifati va qo‘chimchalari

FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN AND THE ISSUE OF ITS REGULATION FROM A LEGAL PERSPECTIVE: INTERNATIONAL EXPERIENCE, CHALLENGES, AND SOLUTIONS"

ABSTRACT

Access to food is the most essential requirement for a person to live and thrive. However, in some cases, due to negligence and indifference, individuals lose their lives due to lack of attention to this necessity. Neutralizing this indifference is primarily the responsibility of individuals and subsequently of the state. Therefore, countries that have raised this issue to the level of state policy have always existed. However, due to the failure of states to fulfill their duties, globally, over 600,000



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

people die due to this negligence, with almost 30% of this number being children. In this article, based on international experience, we will look in detail at the problems causing such alarming situations and the tools that could serve as solutions to address this extremely alarming situation."

Keywords: Food safety, GFSI (Global Food Safety Index), sanitation and epidemiology, human health, global cooperation, consumer safety, food product quality, food additives.

KIRISH

“Kimki uzoq va sog‘lom hayo kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e‘tibor qaratsin.

Abu Ali Ibn Sino Avvalambor, mamlakatimizdagi nega aynan ushbu sohaga e‘tibor qaratish zarurligini bilib olish kerak . Buni yaqin yillar davomida e‘lon qilinib keliniyotgan GFSI(global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi)dan javobni izlash maqsadga muvofiq. O‘zbekiston esa ushbu indeksdagi 113 ta mamlakat o‘rtasida 73- pog‘onani egallab turmoqda. Batafsil yondashar ekanmiz, Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti tomonidan tuziladigan ushbu reytingda davlatlarning to‘rt jihati, ya‘ni oziq-ovqat mavjudligi, arzonligi, xavfsizligi, sifati va uning barqarorlik darajasiga muvofiq tarzda ushbu indeks aniqlanadi. 2022-yilgi indeksda birinchi o‘rinni Finlandiya davlati, ikkinchi o‘rinni esa Irlandiya, uchinchi o‘rinni esa Norvegiya va Osiyo mamlakatlaridan Yaponiya oltinchi o‘rinni egalladi. Shu bilan birgalikda Finlandiya 100 ballik hajmda 83,7 ball bilan dunyodagi oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha eng xavfsiz mamlakat deb topildi. O‘zbekiston esa 73-o‘rinni 57,5 ball bilan band etdi. Qo‘shni mamlakatimiz bo‘lmish Qozog‘iston esa ancha oldinda, ya‘ni 32-o‘rinni 72,1 ball bilan egallagan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, biz bu sohadagi harakatlarimizni yanada ildamlashtirishimiz lozim. Boshqa sabablarga murojaat qilsak, so‘nggi yillar oziq-ovqatdan zaharlanish holatlari tobora ko‘paymoqda, misol uchun, Kun.uz sayti ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yilning 8 oyi davomida 39 ta holatda ovqatdan guruhli zaharlanishi ro‘y bergan va ularda jami 414 fuqaro fuqarolar jabrlangan, eng achinarlisi bulardan 86 nafari bolalardir. Yana bir dalil esa bozorlarimizda yoki savdo shaxobchalarida sanitariya va epidomolgiya talablari va standartlariga muvofiq kelmaydigan tarzda savdo qilinishi holatlari ko‘payib bormoqda. Jumladan, Sanitariya-epidemiologik



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati xabar berishicha, 2023-yil aholi orasida yuqumli oshqozon-ichak kasalliklari va guruhli ovqatdan zaharlanish holatlarining oldini olish borasida boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda 1150 ta reydlar o'tkazildi, 149 marotaba bozorlarda, 375 ta umumiy ovqatlanish korxonalarida, 597 ta savdo do'konlarida va 142 ta oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarida o'rganishlar o'tkazildi. Aniqlangan kamchilar yuzasidan 228 nafar fuqarolarga nisbatan ma'muriy choralar qo'llanilib, sifatsiz deb topilgan 36475 kg oziq-ovqat mahsulotlarining savdosi taqiqlandi. 564 nafar ishchi xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi uchun vaqtincha ishdan chetlashtirildi. 25 ta obyektlarning ish faoliyati aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgunga qadar vaqtinchalik to'xtatilgani ma'lumot o'rnida keltirildi. Yuqorida qayd etilgan sonlarni oz-muncha deb bo'lmaydi, chunki rivojlanayotgan mamlakat aholisi bunday kamchiliklarga duch kelishi, albatta, insonni oddiy fuqaro sifatida yurt kelajagi to'g'risida chuqur o'ylantiradi. Umuman olganda bu sohada hech qanday suiste'molliklarga yo'l qoyib bo'lmaydi, sababi bunday suiste'mollik inson taqdirini hal qilishi hech gap emas. Bu bir qancha olimlar tomonidan ham tavsiflab berilgan. Jumladan, Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat zanjiridagi barchani o'z ichiga oladi. Iste'molchilar xavfsizligini ta'minlashda mas'uliyatdan voz kechishga o'rin yo'q". - deydi Maykl R. Teylor.

Shu bilan bu sohadagi yutuqlar ham asta-sekinlik bilan namoyon bo'lib bormoqda. Eng yaqqol misol esa O'zbekiston 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sishdagi 10 davlat ichida birinchi o'rinni egalladi", – deyiladi indeksda. Shuningdek, 2023-yil 7-8 sentyabrda Samarqand shahrida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ko'magida tashkil etilgan ushbu konferensiyaning aynan bizning yurtimizda bu sohaga nisbatan e'tibor oshib borayotganini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, davlatning muayyan ijtimoiy munosabalarida kamchiliklar bor ekan, demak, bu avvalo uning huquqiy jihatdan tartibga solinishida bo'shliqlar mavjud ekanligini bildiradi. Shu boisdan muammolarni aniqlash uchun eng avvalo ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga qarash maqsadga muvofiqdir. Ulardan eng asosiysi 1997-yil 30-avgust kuni qabul qilingan 'Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati' qonuni qabul qilindi va ushbu qonun maqsadi qonunda belgilanishicha aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

huquqiy asoslarini belgilab berishdir. Shuningdek ushbu hujjat oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yagona qonun hujjati hisoblanadi. Ikkinchisi, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlashning chora-tadbirlari to'g'risida 2018 yil 16- yanvarda qabul qilingan Prezident farmoni mavjud .Bu qonunosti hujjatlarga misol bo'la oladi. Uchinchisi oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi " Vazirlar Mahkasi tomonidan 31-aprel 2022-yilda qabul qilingan qaror. To'rtinchisi , Oziq-ovqat mahsulotlariga , ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida qaror bor bo'lib , unda mahsulotlarning sanitariya ekspertizadan o'tkazilishi va ularning iste'mol uchun yaroqliligi haqida xulosa berishni o'z ichiga oladi . Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, xorijiy davlatlarda ham bunday huquqiy hujjatlar mavjud. Bunga misol sifatida ularning quyidagi qonun hujjatlarini keltirib o'tirishimiz joiz: Finland – Food akti(No . 297/2021). Ushbu akt maqsadi: iste'molchilarning sog'ligini hamda iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va oziq-ovqat mahsulotlarining va ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar xavfsizligini ta'minlash hamda oziq ovqat sifati va oziq-ovqat qoidalariga bog'liq boshqa standartlarning , shuningdek oziq-ovqat haqidagi ma'lumotlarning to'g'ri va aniq bo'lishini kafolatlashdan iboratdir. Yoki Irlandiyaga yuzlanadigan bo'lsak ularda ham Irland – Oziq-ovqat akti mavjudligini ko'ramiz . Bunday aktdan oziq-ovqat qonunchiligining buzilishini aniqlash, oldini olish va oldini olish orqali oziq-ovqat zanjiri xavfsizligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qiladi. Ko'rinib turibdiku mamlakatimizda yetarlicha sohani tartibga solishga qaratilgan qonunlar va hujjatlar mavjud, lekin qonunchiligimizda ham bo'shliqlar yo'q emas. Misol uchun do'konlarimizda shunday mahsulotlar borki, unda na muvofiqlik sertifikatini na ishlab chiqaruvchi ma'lumotlari mavjud va ba'zi "tadbirkorlar" bunday bo'shliqdan ancha foyda ko'rmoqdalar. Lekin ular bunday mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqarib barchamizni xavfga solmoqdalar. Shuning uchun bunday mahsulotlar savdosiga chek qo'yishimiz va bu uchun tayinlanadigan jazo choralarini kuchaytirishimiz kerak. Bundan tashqari xalqaro hujjatlardan Anjumanda BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentyabrdagi 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi rezolyutsiyasi va ushbu hujjatda aks etgan 17 ta maqsad va vazifalar yuzasidan fikr mulohazalar bildirilgan .Xususan, BRMning ikkinchi maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda agrar sohani barqaror rivojlantirishga ko'maklashish yuzasidan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xalqaro hamkorlik va doimiy ravishda harakatlar olib borish hisoblanadi.

NATIJALAR

Yuqoridagi masalalar yuzasidan quyidagi muammolar va kamchiliklar aniqlandi: birinchidan, insonlar orasida to'g'ri ovqatlanish standartlarining mavjud emasligi. Ushbu standartlar davlat yoki so'g'liqni saqlash tashkilotlarida tomonidan ishlab chiqilgan, odamlarga sog'lig'ini saqlash va parhez bilan bog'liq kasalliklar xavfini kamaytirish hamda sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish uchun beriladigan ko'rsatma va tavsiyalardir. Bizda esa hali hanuz bunday odat shakllanmagan. Vaholanki, buni Konstitutsiyamizning 48-moddasida ham ko'rishimiz mumkin, ya'ni aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlanishi va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi davlat majburiyati sirasiga kiritilgan. Biroq, harakatlarga qaramay qon-qonimizga singib ketgan ba'zi "odatlar" bizni sog'lom turmush tarzi va sog'lom hayotdan ajratib turibdi. Misol uchun bozor, do'kon va ko'chalarda sotiladigan mahsulotlarni uning tayyorlanish va saqlanish holatidan bexabar ravishda sotib olish yoki ovqatni isrof bo'lmasligi uchun majburan uni oxirigacha yeyish kabi bir qancha jihatlarimiz sog'lom turmush tarzimizga to'sqinlik qilyapti. Lekin shuni yodda ko'tarmaslik lozimki, bunday mahsulotlar insonga har qanday ravishda ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat ovqat bilan bog'liq, balki hamma odamlarning sog'lom va samarali hayot kechirishini ta'minlashdan iboratdir.

Ikkinchidan, bu sohaning tabiiy omillarga tayyor emasligi. Masalan, qurg'oqchilik, toshqinlar, haddan tashqari isish, iqlim o'zgarishi kabi bir qancha tabiiy omillar bo'lib, bu tabiat hodisalar oziq-ovqatni qimmatroq qiladi, tuproq degredatsiyasini kuchaytiradi, global ochlikni va qashshoqlikni yuzaga keltiradi va eng muhimi oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi. GFSI 2022 indeksida ham aynan iqlim o'zgarishi va global isish hosilning unumdor bo'lishiga hamda ularning bunday bosimga qarshi kurashish murakkabligi ta'kidlab o'tildi. O'zgaruvchan iqlim bevosita oziq-ovqatga o'z ta'sirini ko'rsatadi, chunki iqlim juda isishi va haddan tashqari sovuq bo'lishi yoki yog'ingarchilarning o'zgarishi kabi noqulayliklar oziq-ovqat unumdorligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Uchinchidan, ta'lim tadqiqotlar. Birgina xalqaro misol shu sohadagi ta'lim va tadqiqotlar uchun doimiy sarmoyalar kirituvchi mamlakat bu - Yaponiya. Bu esa xavfsizlikni tekshiruvchi innovatsiyalar va ilg'or tajribalarning rivojlanishiga, xavfsiz oziq ovqatlar ishlab chiqarish va tarqatish tizimlar takomillashuviga olib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

keladi. Shu boisdan kun chiqar mamlakati bo‘lmish Yaponiya indeksning yuqori pog‘onalarni egallab turibdi. Ham Bizning yurtimizda bu sohadagi ta’limga va innovatsiyalarga urg‘u berilmas yoki innovatsiyalar kirib kelmas ekan, oziq-ovqat xavfsizligi xavf ostida qolish ehtimoli yuqori. Shuning uchun davlat rivojlangan mamlakatlardan bu sohadagi eng ilg‘or texnologiyalarni sotib olishi va amaliyotga tatbiq etishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, suv tanqisligi. Mutaxassilarning ta’kidlashicha, O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq jiddiy muammolar sirasiga ham aynan biri o‘zgaruvchan suv rejimi, ya’ni O‘zbekiston hududidagi Amudaryo va Sirdaryo daryolarning yildan yilga suv hajmining kamayishi hosilning sifatsizlanishiga va ularning narxiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yoki qo‘shni Afg‘oniston tomonidan qurilayotgan uzunligi 280 km, eni 100 metr bo‘lishi kutilayotgan Qo‘sh tepa kanali Markaziy Osiyo yaqin kelajagida suvdan foydalanish tartibini va muvozanatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin.

MUHOKAMA

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun esa quyidagi tavsiyalarni ilgari surish zararli oqibatning bir qancha yumshatilishiga olib keladi.

1. Hosilni xilma-xillashtirish. Dehqon yoki fermerlar tomonidan faqat bir turdagi mahsulotlarni yetishtirishga e’tibor qaratish tuproq unumdorligini pasaytirishi hamda hosilni kasalliklar va zararkunandalarga nisbatan nisbatan himoyasini zaifroq qilishi mumkin. Shu boisdan faqat bir turdagi emas, bir necha turdagi mahsulot yetishtirishi zarur, sababi agarda mahsulotlar iqlim o‘zgarishi, tuproq sho‘rlanishi yoki boshqa tabiiy omillar tufayli nobud bo‘ladigan bo‘lsa, ular boshqa muqobil imkoniyat mavjud bo‘ladi, ya’ni boshqa yetishtirilgan mahsulot mavjud bo‘lganligi bois ular o‘z dehqon yoki fermer xo‘jaliklarini davom ettirishlar mumkin. Umuman olganda oziq-ovqat mahsulotlarning sifatli ravishda tayyorlanishi va yetib kelishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi.
2. Sohaga doir ta’limni qo‘llab quvvatlash. Ma’lumki, oziq-ovqat xavfsizlikni muayyan talabga javob beradigan va yetarli ko‘nikmalarga ega kadrlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu boisdan ularni tayyorlovchi ta’lim muassalarini yaratish va ularga imkoniyatlar yaratish sohani gullatish demakdir. Buning uchun eng avvalo



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

sohada doir mutaxassislar hamda yetarlicha amaliyotga yo'naltirilgan darslik bo'lishi maqsadga muvofiq.

3. Global hamkorlikni oshirish. Shunday muammolar bo'ladiki, ularni davlatning tanho o'zi bartaraf etish salohiyatiga ega emas. Shunga o'xshash global muammolar sirasiga oziq-ovqat xavfsizligi ham kiradi. Misol uchun suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, global ishish va qurg'oqchilik kabi ba'zi misollar oziq-ovqat narxi yoki sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ularni bartaraf etishda davlatlar hamkorlik munosabatlar talab etiladi. Xose Graziano da Silva fikri bilan aytganda "Oziq-ovqat xavfsizligiga intilish biz duch keladigan turli muammolarni o'zaro bog'laydigan va global hamkorlikni yaratishga yordam beradigan umumiy mavzu bo'lishi mumkin."

4. Aholida to'g'ri ovqatlanish va sanitariya-epidemiologiya haqidagi ongni shakllantirish.

Biz bu sohada yuqori o'rinlarga chiqmoqchi bo'lsak avvalambor oziq-ovqat xavfsizligiga oid fikr va qarashlarni o'zgartirishimiz zarur. Bizda esa haligacha bu soha haqida notog'ri qarashlar mavjud. Misol uchun oziq-ovqat xavfsizligi deyilganda ko'pchilik faqatgina oziq-ovqat mavjudligini va ular bilan oziqlanishnigina shunday atashadi, lekin bu mutlaqo xato tushuncha. Sababi oziq-ovqat tayyorlanish jarayonidan to uning iste'molchiga yetib borguniga qadar sifat standarti va talablariga javob berishi yoki uning inson salomatligi uchun hech qanday zararli ta'sir ko'rsatmasligi aslida oziq-ovqat xavfsizligi deb nomlanadi. Jacques Dioufning "Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat odamlarni oziqlantirish, balki barcha insonlarni xavfsiz, to'yimli, arzon oziq ovqat bilan ta'minlashdir." degan fikri bilan gapimizni yana bir bor isbotlashimiz mumkin.

Bu vazifani bajarish bir qancha qiyinchiliklar olib kelishi mumkin, sababi yillar davomida shakllangan qarashlarni tezlikda o'zgartirishi mumkin emas. Lekin aholi o'rtasida targ'ibot, gigeyeniya rioya etish, shifokorlar tomonidan bepul tavsiyalar, sanitariyaga rioya etilishi ustidan qa'tiy nazorat kabi choralar orqali bu maqsadga erisha olamiz.

XULOSA

Biz oziq-ovqat xavfsiz deya taniladigan davlatni barpo etmoqchi ekanmiz, eng avvalo barcha o'zgarishlarni o'zimizdan boshlashimiz kerak. Chunki bunday mahsulotlarni sotib olayotgan, uni iste'mol qilayotgan ham insonlar. Shuning uchun hech qachon ushbu qoidani yoddan ko'tarmasligimiz lozim: to'g'ri tanlov qilish -



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

eng yaxshi himoya zero biz bu mahsulotlarni sotib olishda e'tiborli bo'lishni boshlasak, sifatsiz mahsulotlar ham o'z egasini topmay yana asl ishlab chiqaruvchilariga qaytadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI WEBSAYTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati to'g'risidagi qonuni" – 1997-yil 30-avgust.
- 2.<https://www.foodsafely.org/uz/gida-guvenligi/gida-guvenligi-nedir/>
- 3.GLOBAL FOOD SECURITY INDEX 2022 REPORT – ECONOMIST IMPACT
<https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index/download-the-index>
- 4.O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taminlashning ayrim masalalari – Yuldashev N.A, <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-oziq-ovqat-xavfsizligini-ta-minlashning-ayrim-masalalari/viewer>
- 5.Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident farmoni – 2018-yil 16-yanvar
- 6.<https://www.foodcertificate.org/uz/gida-guvenligi/> - Food safety standard
- 7.Oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash – davr talabi, Xalq so'zi gazetasi
<https://xs.uz/uz/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>
8. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI – Taraqqiyot strategiyasi markazi matbuot xizmati, <https://strategy.uz/index.php?news=1310&lang=uz>

